

## OVOZ USTIDA ISHLASHDA DINAMIK TUSLARNING O`RNI



**Maxamadjon Usubjonovich Yuldashev**

O'zbekiston xalq hofizi, professor

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-09>

**Annotatsiya:** Dinamika ijroning eng ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi. Dinamikadan samarali foydalanish ijroning umumiy xarakterini, uning emotsional mazmunini ochib berishga hamda asarning boshqa xususiyatlarini ko'rsatishga yordam beradi. Turli xilda qo'yilgan mantiqiy urg'ular musiqiy asar mazmunini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun dinamika asarning ifodali joylarini aniq va ravshan ijro etishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ijrochitalabalarning kasbiy-madaniy saviyasini yuksaltirish, vokal imkoniyatlarini rivojlantirish, ovoz ustida ishlashda dinamik tuslarning o'rni xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ovoz, dinamika, ijro, mashq, nafas olish, talaffuz, diksiya, iste'dod, mahorat.

**Аннотация:** Динамика является одним из наиболее эффективных средств исполнения. Умелое использование динамики помогает раскрыть общий характер исполнения, его эмоциональное содержание и подчеркнуть другие особенности произведения. Различные логические акценты могут существенно изменить смысл музыкального произведения. Поэтому динамика играет важную роль в точном и ясном исполнении выразительных фрагментов произведения. В данной статье рассматриваются вопросы повышения профессионально-культурного уровня студентов-исполнителей, развития их вокальных возможностей, а также роль динамических оттенков в работе над голосом.

**Ключевые слова:** голос, динамика, исполнение, упражнение, дыхание, произношение, дикция, талант, мастерство.

**Abstract:** Dynamics is one of the most effective means of performance. The skillful use of dynamics helps to reveal the overall character of the performance, its emotional content, and highlight other features of the work. Various logical accents can significantly change the meaning of a musical piece. Therefore, dynamics plays an important role in the accurate and clear execution of expressive passages within a composition. This article examines issues related to improving the professional and cultural level of student performers, developing their vocal abilities, and the role of dynamic shades in voice work.

**Key words:** voice, dynamics, performance, exercise, breathing, pronunciation, diction, talent, mastery.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda xonandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va his-tuyg'u va hayajoni va eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovoz sifati, tembrining go'zal va boyligi, pardalarning (intonatsiya) tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy (psixologiya) ruhshunoslik sohasiga aloqadordir.

Bu murakkab jarayonda xonandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati kuylashga qaratilgan bo'lib, u o'z ovozi va yonidagi hamnafaslari ijrosi yoki jo'rnavoz chalayotgan musiqiy tovushlarni eshitishi, nota matni yoki o'qituvchi harakatini ko'rishi, parda, tessitura, sakrash va avjlarni ovoz apparatida his qilishi, sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi.

Xonanda dastlab ko‘rish, eshitish, ovoz apparati va ichki tuyg‘u bilan his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (she‘ri, g‘azali, uslubi, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinchi bosqichda o‘z ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qo‘llagan holda ovozning sadolanishi, so‘zlar talaffuzi, og‘iz artikulyasiyasi, bo‘g‘inlar bo‘linishi, metroritm, sur‘at, agogika, dinamika va ashula jumllariga aniqlik kiritadi.

Ovoz apparati yordamida balandligi, kuchi, tembri jihatdan har xil bo‘lgan tovushlarning yig‘indisidan kishi ovozi belgilanadi. Ovoz – ovoz naychalarining tebranishi natijasida vujudga keladi.

Ijrochi-xonandaning ovozi va ijrochilik faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda xonanda asar kayfiyatiga mos, ovoziga, o‘ziga xos ravishda qizg‘inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda kuylaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda o‘qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) ovoz mashqlarida ovozning asosiy sifatleri: kuchi va balandligini rivojlantirish;
- 2) talabalarni kuchanmasdan, turli vaziyatlarga qarab ovozdan to‘g‘ri foydalanishga (past-baland) o‘rgatish;
- 3) Intonatsion ma‘nodorlik (ifodalilik) ustida ishlash.

“Intonatsiya” – bu ovozning nutq, tovush doirasida va muayyan vaqt birligi davomida turlicha tovlanishidan iborat. Intonatsiya deganda, nutq tovushi tarkibidagi ohangdorlik va jilo tushuniladi. Intonatsiya chinakam emotsional holatning mahsuli bo‘lib, u so‘zlovchining xohishi, irodasi, niyati, intilishi, ruhioy kechinmasi kabi omillar bilan, ya‘ni so‘zlovchining jismoniy va ruhiy holati bilan bog‘liq.

Nutqning intonatsion ma‘nodorligini tarbiyalash ustida ishlash taqlid qilish asosida olib boriladi. O‘qituvchi bolalarga she‘rni yod oldirishda, qayta hikoya qilishda o‘zi nutqning intonatsion vositalaridan keng foydalanadi va bolalar diqqatini nutqning ma‘nodorligiga yo‘naltiradi. Talabalar o‘qituvchining to‘g‘ri, intonatsion, ma‘nodor (ifodali) nutqini eshitib, o‘zlari ham nutqlarida mustaqil ravishda kerakli intonatsiyalardan foydalana boshlaydilar.

Ovoz ustida ishlashda asarning xarakteridan kelib chiqqan holda, shu asar tovushqatoriga mansub mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashq ijro vaqtida ayni shu asar pardalarining baland pastlik o‘rmini his qilish lozim bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi talabalarga tanlangan musiqiy asarning xarakteri, umumiy tuzilishini anglab olishlari va to‘laqonli ijro etishlari uchun tushuntirish ishlari olib borishi zarur.

Inson xalqumidan jaranglaydigan ovoz – go‘zal ovoz degan g‘oya, ovozning mahoratli chiqarilishi insonning jismoniy tuzilishiga ham bog‘liq. Ovozlar xatto og‘iz, burun, tanglay kabi a‘zolarining joylashuviga va katta kichikligiga ham bog‘liqdir. Masalan: og‘zi nisbatan katta, tanglayi keng, burni uzun bo‘lgan xonandalar ovozi o‘ta jarangdor, rang–barang, boy tembrli va yuqori pardalarda bemalol ovozi qiynalmay chiqib tushadigan qobiliyatga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari bo‘y uzunligi, o‘pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo‘lishda katta ahamiyatga ega. Ovozlarning tozaligi va keng ko‘lamligi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog‘liq. Masalan, dengiz yoki okean bo‘ylarida yashovchi xonandalar ovozi juda jarangdor bo‘lib, erkak xonandalarning ovozlari juda go‘zal, rang–barang tembrga ega bo‘ladi. Issiq o‘lkalarda, ya‘ni ekvatorga yaqin mamlakatlarda xonandalarning ovozlari nisbatan quruqroq yoki jarangdorligi nisbatan pastroq bo‘lib, tenor va bariton ovozlari ko‘plab uchraydi. Ekvatordan Shimolga tomon surilib borgan sari ovozlari turi kamayib tenor, bariton, bas va yo‘g‘on bas kabi ovoz ko‘lami va turlari yo‘g‘onlashib boradi. Shimoliy Muz okeaniga yaqin mamlakatlarda esa bas ovoqli xonandalar ko‘payadi. Bu ko‘pchilik olimlar tomonidan sinalib, aniq dalillar bilan isbotlangandir.

Ashulani o‘ziga tez singdirib olmaydigan va ijro mahorati yaxshi rivojlanmagan talabalarga esa mustaqil mashg‘ulot qilishlari uchun maxsus mashqlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ijro jihatdan murakkab qismlar ustida yetarlicha ishlash yaxshi natijalarga olib keladi. Lekin ko‘p hollarda asarni to‘liq ijro etishda o‘tgan qismlar asarning umumiy yo‘nalishidan ajralib qolishi mumkin. Shu sababli murakkab qismlarni takrorlashda bir necha jumllarni oldingi va

keyingilarini qo‘shib ijro etish tavsiya etiladi. Tanlangan asarning boshqa yakka yoki jamoa tomonidan ijro etilgan audio, video, audio yozuvlarini eshittirish usulidan ham foydalanish ijobiy natija beradi.

Xonanda ovozi tabiatning qimmatbaho in‘omi bo‘lib, undan ijrochi ehtiyotkorlik va aql bilan foydalanishni talab qiladi. Qatiq nutq, baqirib kuylash, noqulay (past va yuqori) tessiturani haddan tashqari ishlatish, ovoz apparatining kasalligida kuylash - bularning hammasi ovoz pardalarini charchashiga va kasalga chalinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, ashulachilar o‘z ovozlari asrashlari, uni har xil kasalliklardan saqlashlari zarur. Mashg‘ulotni dam olish bilan oqilona almashtirib turish xonandalik rejimining asosiy qoidasidir. Shuningdek, sovuq havoda kuylash, sovuq ichimlik ichish esa, ovoz apparatiga salbiy ta‘sir qilishini esdan chiqarmaslik kerak. Vaqti-vaqti bilan vrach-foniatr ko‘rigidan o‘tib turish ovoz apparati kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

“Dinamika” (yunoncha – dynamikos – kuchli, musiqa tovushlarini qattiq-mayin ijro qilish) – kuy ijrosida tovush kuchi balandligining o‘zgarishi. Dinamika ijroning eng ta‘sirchan vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Dinamikadan samarali foydalanish musiqaning umumiy xarakterini, uning emotsional mazmunini ochib berishga hamda asarning boshqa xususiyatlarini ko‘rsatishga yordam beradi. Turli xilda qo‘yilgan mantiqiy urg‘ular musiqiy asar mazmunini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun dinamika asarning ifodali joylarini aniq va ravshan ijro etishda muhim ahamiyatga ega.

Dinamik belgilar bu musiqada uning eshilitish kuchi turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Bu tovush kuchi dinamik belgilar bilan ko‘rsatiladi. Dinamik belgilar katta ifoda kuchiga ega. Masalan, kuyning ko‘tariluvchi harakati eshilitish kuchini oshirib boradi, quyilashtiruvchi harakati esa, eshilitishning pasayishiga olib keladi. Asarning badiiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi ifoda vositalaridan biridir.

Musiqiy asar ustida ishlash jarayonida forte dinamikasida ba‘zi ijrochilar umumiy tovushlar ichida sezilmay qolayotganligi ma‘lum bo‘lib qoladi. Bu holda albatta o‘qituvchi tuzatish kiritishi zarur bo‘ladi. Forte tushunchasi uch xil mazmun hosil qiladi:

*Yakka ijrodagi – forte*

*Alohida guruh ijrosidagi – forte*

*Jamoa ijrosidagi – forte*

Ulardan birinchisini izohlashga hojat yo‘q. Ikkinchisi esa muhim xususiyatga ega bo‘lib, bu holda jamoadagi eng yorqin ovozi ijrochining dinamik imkoniyatlari inobatga olinadi. Yakka tarkibida aniqlangan bu eng kuchsiz forte boshqa ijrochilar uchun etalon vazifasini bajaradi. Ular o‘zlariga bo‘lib berilgan qo‘shiqning ma‘lum bir qismini umumiy jaranga (fortega) moslashgan holda ijro etadilar.

Boshqa dinamik tus – piano xususida ham xuddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Mayin piano va o‘ta nozik pianissimo ko‘plab ijrochilarga xos va ularni inkor etib bo‘lmaydi. Birgalikdagi ijroda pianoetaloni xonandalarning mahoratiga ham bog‘liq bo‘ladi. Pianonyuansini, undan ham ko‘ra pianissimo nyuansini ba‘zi ijrochilarda muayyan tessiturada (ijrochi ovozinin biror musiqa asarida ishlatilgan eng pastki va yuqorigi tovushlari oralig‘i) ijro etish texnik jihatdan ancha mushkul. Musiqiy tovush hosil qilish sohasidagi ijrochilik mahorati pirovard natijada yagona maqsadga qaratiladi.

Muayyan hollarda, umumiy muvozanatga erishish maqsadida piano nyuansi biroz balandroq ijro etiladi, bu holda yakkaxon ijrochi ijrosidagi pianoning qo‘pollashib ketishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Jamoa dinamikasi yakkaxon ijrochi dinamikasiga nisbatan doimo kengroq bo‘ladi.

#### **Dinamikaning shartli belgilari, ularning ma‘nosi va talaffuz qilinishi:**

<b>Qisqacha belgilari</b>	<b>Talaffuzi</b>	<b>Ma‘nosi</b>
p	(piano)	past, sekin
pp	(pianissimo)	juda past, sekin
ppp	(piano–pianissimo yoki uchta piano)	judayam past, sekin

f	(forte)	baland, qattiq, kuchli
ff	(fortissimo)	juda baland, qattiq, kuchli
fff	(forte-fortissimo yoki uchta forte)	judayam baland, qattiq, kuchli
mp	(metstso – piano)	o‘rtacha past, sekin
mf	(metstso-forte)	o‘rtacha baland, qattiq
crescendo	(kreshendo)	tovushning asta-sekin kuchayishi
diminuendo	(diminuendo)	tovushni asta-sekin susaytirish

Talaba ovozi ustida olib borilayotgan ish jarayonida ma’lum bir maqsadlarga erishgach, musiqiy dinamik tuslar hamda legato, non legato, staccatolar uchun ham mashqlarni berish lozim. Mashq – bu bilim olishning asosiy vositasi. Staccato va legato kuylashni ham almashtirish ham juda foydali.

Legato (legato) tovushlarning bir-biri bilan uzluksiz bog‘langan harakati bo‘lib, har bir tovush keyingisiga osoyishta va aniq harakatda o‘tishi kerak. Legato qilib ijro etishga misol qilib rus xalq lirik (cho‘zib ijro etiluvchi) qo‘shiqlarini eslatish mumkin.

Staccato (stakkato) - tovushlarni vaqt oralab alohida-alohida ijro etish. Stakkato tovushlari oraliq‘ida nafas olinmaydi. Stakkato tovush yo‘nalishida xonanda ovozi yengil, yorqin, bukiluvchan va qisqa eshitiladi.

Non legato (non legato) - tovushlarni aniq va bir-biridan ajralgan holda ijro etish turi bo‘lib, tovushlar orasida nafasni ushlab orqali hosil qilinadi. Tovush yo‘nalishining bu turi staccato va legato turlarining oraliq‘idagi o‘rnini egallagan, ularning har biriga o‘xshash tomonlari bor.

O‘qituvchi tomonidan beriladigan har bir ovoz sozlash mashqlari talabani musiqiy – badiiy ijrosini rivojlantirishda ma’lum bir maqsadga asoslangan holda xizmat qilishi kerak. Talaba asarni yaxshi o‘zlashtirib olgach asardagi dinamik tuslar ustida ish olib borilishi mumkin. O‘qituvchi talabaga mana shu asosiy etaplarni o‘tib bo‘lgach asarni badiiy obrazini tinlovchiga yetkazib berish ustida ishlay boshlaydi.

Maqom yakkaxon xonandaligida talaba-ijrochilardan to‘g‘ri diksiya ya’ni adabiy tekstni aniq va ravshan talafuz qilish talab qilish lozim. Tovush o‘rnining to‘g‘riligi va nafas aktivligi diksiyaga bog‘liq. Tantanavor, qahramonlik, dramatik xarakterdagi asarlar undosh tovushlarni ta’kidlab, aniq talaffuz etishni talab qilsa, lirik xarakterdagilari esa mayin talaffuzga mos keladi. Yomon diksiya asarning ifodaviyligi va mazmunini susaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev R. Yakkaxon qo‘shiqchilik (xonandalik sinoatlari). T., 2020.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodi, Toshkent – “Niso poligraf” – 2017.
3. Sultonov A. “Mumtoz ashula va qo‘shiqlar ijrochilari va bastakorlari. Toshkent – “Innovatsiya-Ziyo” 2021.
4. Isroilova X. Xonandalik san’ati. – T., 2008.
5. G‘ofurbekov T. Bastakorlar ijodiyoti: tarixi tahlili, taqdiri, Toshkent – 2019.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. Ikkinchi nashr. –T.: Yangi asr avlodi, 2019.
7. Rajabov I. Maqomlar. (Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov). T.: 2006.
8. Mamadaliyev F. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001.
9. Matyoqubov O. “Maqomot”. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2004.
10. Sharipova G. Musiqa va uning o‘qitish metodikasi. – Toshkent.: 2006.